

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.B.04.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BAXTIYOROVA MUNIRA SULTONALIYEVNA

**POMIDOR MEVASI JIGARRANG BUJMAYISHI (*TOMATO BROWN
RUGOSE FRUIT VIRUS*) VIRUSINI AJRATISH, XUSUSIYATLARINI
O'RGANISH VA UNING DIAGNOSTIKASI**

03.00.04 - Mikrobiologiya va virusologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Baxtiyorova Munira Sultonaliyevna

Pomidor mevasi jigarrang bujmayishi (*Tomato brown rugose fruit virus*) virusini ajratish, xususiyatlarini o'rganish va uning diagnostikasi..... 5

Бахтиёрова Мунира Султоналиевна

Выделение, изучение особенностей и диагностика вируса коричневой морщинистости плодов томата (*Tomato brown rugose fruit virus*)..... 21

Bakhtiyorova Munira Sultonaliyevna

Isolation, study of peculiarities and diagnostics of *Tomato brown rugose fruit virus*41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.B.04.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BAXTIYOROVA MUNIRA SULTONALIYEVNA

POMIDOR MEVASI JIGARRANG BUJMAYISHI (*TOMATO BROWN RUGOSE FRUIT VIRUS*) VIRUSINI AJRATISH, XUSUSIYATLARINI O'RGANISH VA UNING DIAGNOSTIKASI

03.00.04 - Mikrobiologiya va virusologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.3.PhD/B1239 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.chdpu.uz/ilmiy-kengash) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayziyev Voxid Baxramovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sherimbetov Anvar Gulmirzayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Maxmudov Toxir Halimovich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), kat.i.x.

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 20 » april kuni soat 14.00 » dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy, Tel.: (+99870) 712-27-55, faks: (+99870) 712-45-41; e-mail: chdpukengash@umail.uz)

Dissertatsiya ishi bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (46 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy, Tel.: (+99870) 712-27-55, faks: (+99870) 712-45-41; e-mail: chdpukengash@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 08 » 04 kuni tarqatildi.
(2026 yil 08 » 04 » 03 » raqamli reyestr bayonnomasi).



S.T.Jo'rayev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash rais
o'rinbosari, b.f.d., professor

A.Q. Bo'ronov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, b.f.f.d., dotsent

H.A.Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kundagi mamlakatlar orasida global darajadagi mahsulotlar almashinuvining ortib borishi yer yuzida pomidor singari muhim qishloq xo'jalik o'simligini kasallantiruvchi viruslar sonining kun sayin ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, pomidor ekini vegetatsiyasining qisqarishi va mahsulot sifatining yomonlashishi kabi salbiy oqibatlar qishloq xo'jaligida iqtisodiy zarar keltirmoqda. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi ekinlarini zararlaydigan fitopatogen viruslarni tezkor aniqlash uchun zamonaviy diagnostika usullaridan, masalan, PZR usulidan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyati katta, bu virus tarqalishining oldini olish va yuqori sifatli barqaror qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun muhimdir.

Jahonda pomidor o'simligini kasallantiruvchi fitoviruslarni aniqlash va xususiyatlarini o'rganish, molekulyar identifikatsiyalash hamda qarshi kurash choralarini ishlab chiqish borasida muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Pomidor mevasining jigarrang bujmayishi virusi butun dunyoda keng tarqalgan pomidor hosildorligiga katta zarar keltiruvchi viruslardan biri bo'lib, bugungi kungacha bu virusning tarqalishi, biologiyasi, molekulyar-genetik xususiyatlarini aniqlash, virusning o'simlik fiziologik xususiyatlariga ta'sirini baholash, chidamli navlarni yaratish hamda zararini kamaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham pomidor (*Lycopersicon esculentum* Mill.) o'simligini kasallantiruvchi viruslarni aniqlash, o'simlikni turli kasalliklardan himoyalash, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanib hosildorligini oshirish va kasalliklarni tezkor diagnostika qilish borasida muhim natijalarga erishildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Eksportbop mahsulotlar yetishtirish, meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar va issiqxonalar maydonini bir necha barobar kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish"¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar asosida pomidor mevasining jigarrang bujmayishi virusini ajratish va uning molekulyar-genetik xususiyatlarini o'rganish, yangi izolyatlarini ro'yxatdan o'tkazish, oqsil qobig'i sinteziga javobgar bo'lgan geni asosida diagnostika qilish, tarqalish yo'llari va saqlanishini aniqlash hamda qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi PQ-4246-sonli "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-sonli "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmonlari, Vazirlar

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Mahakamasining 2022-yil 5-iyuldagi 361-son “Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining “Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pomidor o‘simligining virusli kasalliklarini aniqlash va diagnostika qilish bo‘yicha xorijda: F.Holmes (1935), M.Hollings va O.Stone (1973), H.Laterrot (1982), I.Hanssen (2010) va M.Lapidot (2010) pomidorda keng tarqalgan *Tomato yellow leaf curl virus* (TYLCV) infeksiyasi, N.Soler (2011), S.Panno (2012), S.Davino (2016) tomonidan pomidorda uchraydigan yangi virus turlari aniqlanib, ularning molekulyar diagnostikasi ustida, so‘nggi yillarda *Tomato brown rugose fruit virus* (ToBRFV) bo‘yicha izlanishlar N.Luria va A.Dombrovsky (2017), N.Salem (2019), R.Alkowni (2020), S.Panno (2020), B.Chanda va H.Fidan (2021) tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida o‘simlik viruslarini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi I.G.Atabekov rahbarligida S.Yu.Morozov (2001), O.Karpova (2006), R.V.Gnutova (2012), Yu.A.Shneyder (2021) va boshqa olimlar tomonidan pomidorda uchraydigan tobamoviruslar va begomoviruslarning molekulyar-genetik xususiyatlari, yangi shtammlarini aniqlash hamda ularning oqsil tuzilishini o‘rganishga oid tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimizda o‘simlik viruslarini aniqlash, ularning xususiyatlarini o‘rganish va diagnostikasi bo‘yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Yu.I.Vlasov (1960), V.Mirzaahmedov (1964), A.H.Vaxabov (1964), Q.S.Davronov (1984), Z.N.Qodirova (1992), U.M.Jo‘rayeva (1993), G.M.Umarova (2009), V.B.Fayziyev (2011), T.S.Xusanov (2020), T.H.Maxmudov (2023), D.T.Jovliyeva (2024), Z.Sh.Sobirova (2024) tomonidan olib borilgan bo‘lsa, pomidor o‘simligini kasallantiruvchi viruslar, jumladan tomat mozaikasi virusini o‘rganish bo‘yicha B.J.Ahmadaliyev (2023) tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo, mamlakatimizda ToBRFVni ajratish, biologik xususiyatlarini o‘rganish, diagnostika qilish, rezervator o‘simliklari va tarqalishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Shu bois, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar virusga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Chirchiq davlat pedagogika universitetining “O‘zbekiston iqlim sharoitida tarqalgan fitopatogen

viruslarni ajratish, xususiyatlarini o'rganish va diagnostika qilish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi issiqxona sharoitida tarqalgan pomidor mevasining jigarrang bujmayishi virusining RNKsini ajratish, xususiyatlarini aniqlash va molekulyar-genetik identifikatsiyalash hamda filogenetik shajarasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Toshkent viloyati tumanlarida yopiq izolyatsiyalangan sharoitda yetishtirilayotgan pomidor o'simliklarida virusga xos kasalliklarni molekulyar-genetik usullar yordamida monitoring qilish va tarqalish darajasini aniqlash;

ToBRFVni molekulyar diagnostika qilish hamda bioinformatik tahlillar asosida filogenetik shajarasini yaratish;

ToBRFVning izolyatsiyalangan yopiq sharoitda tarqalishi, rezervator o'simliklari va tuproqda saqlanishini aniqlash;

virus zararini pomidor mevasi tarkibidagi muhim biologik moddalar miqdoriga ta'sirini aniqlash orqali baholash;

import qilinayotgan pomidor urug'larida ToBRFVni molekulyar genetik usul yordamida aniqlash;

turli preparatlarning virusga ta'sir darajasini aniqlash va qarshi kurash choralarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamizdagi issiqxonalarda tarqalgan pomidor o'simligini kasallantiruvchi pomidor mevasining jigarrang bujmayishi virusi (ToBRFV) izolyatlari olingan.

Tadqiqotning predmeti ToBRFVni ajratib olish, virusning pomidor mevasi tarkibidagi muhim moddalarga va o'simlik fiziologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish, rezervatorlarini aniqlash hamda molekulyar-genetik identifikatsiyalash va filogenetik shajarasini yaratish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishida virusologik, fizik kimyoviy, molekulyar-genetik, bioinformatik, statistika va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ToBRFV ilk bor Respublikamizda yopiq izolyatsiyalangan sharoitda pomidor o'simligi hosildorligi hamda meva sifatiga jiddiy zarar yetkazuvchi fitovirus sifatida aniqlangan;

virus "Tomato brown rugose fruit virus, M-24" izolyati komplekt genomi va "ToBRFV Uzb 4.1" izolyatining esa oqsil qobig'i (CP) sinteziga javobgar gen uchastkasini sekvens qilish orqali molekulyar identifikatsiya qilingan hamda bioinformatik tahlillar asosida filogenetik shajarasi yaratilgan va dunyoning boshqa mintaqalarida tarqalgan izolyatlardan farqlanishi isbotlangan;

PZR tahlillari yordamida virusning oddiy jag'-jag' (*Capsella bursa-pastoris* L.) va qoqio't (*Taraxacum officinale*) kabi yangi tabiiy rezervator o'simliklari aniqlangan;

ToBRFV "M-24" izolyatining CP genini boshqa izolyatlar bilan qiyosiy tahlili uning beshta uchastkasida nuqtali (Missense) mutatsiya mavjudligi

aniqlangan va *leysin* (L) aminokislota *glutaminga* (Q), *tirozin* (Y) aminokislota *aspartat kislotasiga* (D), *lizin* (K) aminokislota *asparaginga* (N), *alanin* (A) aminokislota *valinga* (V), *arginin* (R) aminokislota esa *seringa* (S) o'zgartirilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pomidor mevasi jigarrang bujmayishi (ToBRFV) virusi diagnostikasi va oldini olish choralari” nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

virusning saqlanishi va tarqalishini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, yopiq izolyatsiyalangan sharoitda zararlangan tuproq, ekish materiali – pomidor ko'chatlari, urug' asosiy infeksiya manbai, changlatuvchi arilar (*Bombus terrestris*), mehnat qurollari va inson asosiy tarqatuvchi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotning ishonchligi zamonaviy virusologik, biotexnologik, molekulyar genetik usullardan foydalanilganligi, ilmiy natijalar “Statistica 6.0” dasturidan foydalangan holda tahlil qilingani, shuningdek, SnapGene, MEGA11 dasturlari yordamida bioinformatik tahlil, GenBank NCBI ma'lumotlar bazasiga o'rganilgan virus izolyatining nukleotidlar ketma-ketligining ro'yxatdan o'tkazilganligi, natijalarni respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokama qilinganligi va tadqiqot natijalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent viloyati issiqxona sharoitida tarqalgan ToBRFVning oqsil qobig'i genom fragmenti hamda komplekt genomini sekvenslash orqali molekulyar identifikatsiya qilinganligi va bioinformatik tahlili yordamida virusning filogenetik shajarasi tuzilganligi hamda issiqxona sharoitida virusning saqlanishi va sirkulyatsiyasi uchun muhim hisoblangan yangi tabiiy rezervator o'simliklarining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yopiq izolyatsiyalangan sharoitda pomidor ekin maydonlarida tezkor zamonaviy TT-PZR diagnostika usuli yordamida ToBRFVning monitoring qilinganligi va “Bakfungin”, “Bovera” kabi turli biopreparatlarning hamda KMnO₄, NaClO kabi kimyoviy preparatlarning virus infeksiyasiga qarshi samarali ta'sir etuvchi konsentratsiyasi va qo'llash usulining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pomidor (*Lycopersicon esculentum* Mill.) o'simligini kasallantiruvchi ToBRFVni ajratish, xususiyatlarini o'rganish va ularning diagnostikasiga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

ToBRFV virusining respublikamizda tarqalgan izolyati “Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar noyob ilmiy ob'yekti kolleksiyasi” genofondiga topshirilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2024-yil 6-noyabr 4/1255-2468-son ma'lumotnomasi). Natijada, fitopatogen mikroorganizmlar shtammlari kolleksiya genofondini boyitish, virus turlari xilma-xilliklari elektron bazasi axborot tahlil tizimini shakillantirish imkonini bergan;

Toshkent viloyati issiqxona sharoitida pomidor ekinlarida kuzatilgan virusli kasallik alomatlaridan TT-PZR usulida tahlil o'tkazilgan va respublikamizda ilk bor ToBRFV virusining "ToBRFV Uzb_4.1" va "Tomato brown rugose fruit virus, M-24" izolyatlari aniqlangan hamda ushbu izolyat Xalqaro GenBankning NCBI bazasiga OR501605.1 va PQ660493.1 ID raqam bilan joylashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 14 iyuldagi 05/06-04-395-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ma'lumotlar dunyo bo'yicha shu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish hamda virus tarqalishini aniqlash va filogenetik shajarasini o'rganish imkonini bergan;

"ToBRFV virusi diagnostikasi va oldini olish choralari" nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu tavsiyanoma O'simliklar karantini va himoyasi agentligining Toshkent va Farg'ona viloyati boshqarmasi laboratoriyalarida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi 2025 yil 14 iyuldagi 05/06-04-395-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, issiqxonada yetishtirilayotgan pomidor va qalampir ekinlarida virusni erta aniqlash, fitosanitar nazoratga olish ishlarini olib borish, shu bilan birga virus tarqalish darajasini kamaytirishga ilmiy-uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish va 1 ta tavsiyanoma, shulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi OAKning doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalariga asoslangan hamda tadqiqotning ob'yekti va predmetlari tavsiflab berilgan. Shuningdek, respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, natijalarning nashr etilganligi va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Pomidor mevasi jigarrang bujmayishi virusining umumiy xususiyatlari va diagnostikasi bo'yicha adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida pomidorni kasallantirib, uning vegetasiyasini erta yakunlanishiga sabab bo'luvchi, dunyo bo'ylab keng tarqalgan karantin virus

kasalliklar ro'yxatiga kiritilgan tashqi (A1) va ichki karantin (A2) hisoblangan xavfli fitopatogen viruslar, ToBRFV ning tavsifi, uning biologiyasi, ekologiyasi va sistematikasi hamda molekulyar-genetik xarakteristikasi haqidagi adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlar uchun foydalanilgan materiallar va uslublar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotni bajarish uchun foydalanilgan materiallar hamda virus RNKsini ajratish, TT-PZR, Real vaqtdagi TT-PZR, an'anaviy PZR va filogenetik shajarani yaratish kabi qator usullar tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“ToBRFVning xususiyatlarini o'rganish, molekulyar diagnostikasi va filogenetik analizi bo'yicha olingan natijalar va ularning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida ToBRFVni molekulyar identifikatsiyalash va issiqxonalarda tarqalish darajasini monitoring qilish, virusning o'simlik morfo-fiziologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish kabi qator tadqiqot natijalari keltirilgan.

Dastlab, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor ekinlarida virusli kasalliklarga xos bo'lgan alomatlar barg plastinkasida mozaikalik dog'lanish, mevalarda burishish, sarg'ayish yoki jigarrang dog'larning paydo bo'lishi, notekis pishish, qattiqlashish va shakl o'zgarishi kabi kasallik belgilari kuzatilgan pomidorning barg va mevalaridan namunalar olinib, real vaqtdagi TT-PZR usulida tekshirildi. Natijada ushbu alomatlar ToBRFVga xos ekanligi tasdiqlandi (1-rasm).

Toshkent viloyatidagi

issiqxonalardan olingan namunalarning PZR tekshiruvlari asosida umumiy tekshirilgan namunalarning tarkibida ToBRFV aniqlanish darajasi 75% ni tashkil etdi. Virus aniqlangan pomidor o'simliklarini vizual monitoring qilish ayrim navlarda (barg va mevalarda) kasallik alomatlarining yaqqol namoyon bo'lganligini, ayrimlarida esa latent holatda ekanligi aniqlandi. Virus aniqlangan navlar orasida *Pink Paradise* va *Alamino* navlari ustunlik qildi. Shuningdek, *O'zge* navida ham infeksiya qayd etildi. *Zamira* va *Marvelans* navlarida esa manfiy natija, ya'ni virus bilan kasallanmaganligi kuzatildi. Pomidor bargi va mevasida virus bir vaqtda aniqlandi. Bu esa ToBRFV o'simlik tanasi bo'ylab keng tarqalishini ko'rsatdi. PZR tahlilining Cq qiymatlari 17,13 dan 29,19 gacha bo'lib, ularning farqlanishi infeksiya darajasining turlicha ekanini anglatadi (1-jadval).



1-rasm. Pomidor o'simligida uchraydigan virusga xos bo'lgan kasallik alomatlari. Rasmdagi: A - mevalardagi xlorotik dog'lar va bujmayish, B, D -notekis pishish va rangsizlanish, C, E, F - jigarrang bujmaygan dog'lar va mevalar qattiqlashish.

ToBRFVning Real vaqtdagi TT-PZR usuli yordamidagi diagnostikasi

Pomidor navi	Fermer xo'jalik nomi	Namuna Turi	PZR *Cq ko'rsatgichi	PZR xulosasi
Pink Paradise	"Agro Light"	Barg	NA	manfiy
Pink Paradise	"Organik biofood"	Meva	17,13	musbat
Zamira	"Salar Nuriddinov Pahriddin"	Barg	NA	manfiy
Alamino	"Agro Produkt Export"	Meva	25,65	musbat
Pink Paradise	"Eco Flowers"	Meva	26,64	musbat
O'zge	"Toshkent logistika servis"	Meva	29,19	musbat
Pink Paradise	"N green haus"	Barg	18,32	musbat
Pink Paradise	"Topliy Sad"	Meva	NA	manfiy
Marvelans	"Agro Impex Gold"	Meva	NA	manfiy
Pink Paradise	"Baxtiyor mirishkor fayz"	Barg	17,55	musbat
Pink Paradise	"Davr savdo"	meva	24,57	musbat
Pink Paradise	"Nsa Agro Development"	Barg	26,49	musbat
Alamino navi	"Stat Agro Product"	meva, barg	26,13	musbat
Pink Paradise	"Bobur Ulugbek Fayz"	meva, barg	16,54	musbat
Pink Paradise	"Maxamat Rixivoy Agro"	Barg	24,47	musbat
Alamino	"Abdujabbor Fotima Muruvvat"	Meva	28,77	musbat


Izoh: *Cq (Quantification cycle) - kDNKning nusxalarini yaratish sikllari soni. Sikl ko'rsatgan ko'rsatgichdan boshlab sinov namunasi ijobiy hisoblanadi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarga ko'ra, Qibray tumaniga qarashli fermer xo'jaliklarida kasallanish darajasi eng yuqori bo'lib, 48-55% ni tashkil etdi. Yuqori Chirchiq tumanidagi xo'jaliklarida kasallanish darajasi nisbatan kam bo'lib, 40-44% oralig'ida o'zgarib turdi. Zangiota tumanidagi xo'jaliklarda esa kasallanish darajasi 39-49% oralig'ida qayd etildi. Ushbu natijalar Qibray tumanini virusning asosiy tarqalish markazi sifatida baholash imkonini beradi.

ToBRFVni oqsil qobig'i geni asosida identifikatsiyalash va filogenetik analizi. ToBRFVning mamlakatimizda tarqalgan izolyatini oqsil qobig'iga (CP) javobgar bo'lgan geni asosida molekulyar identifikatsiya qilish uchun *Rodriguez-Mendoza et al.* (2019) tavsiya etgan praymerlar (ToBRFV-F-ACCAGAG-TCTTCCTATACTCGGA va ToBRFV-R TCACCATCTCTTAATAATCTCT) "Letgen Biotechnology LTD" (Turkiya) kompaniyasi tomonidan sintez qilindi. PZR mahsuloti 475 juft nukleotidni tashkil qildi. Ushbu praymerlar yordamida Toshkent viloyati Qibray tumani "Organik biofood" MCHJ issiqxonasida yetishtirilgan pomidorning *Pink Paradise* va *Alamino* navlaridan virusli kasallik belgilari bo'lgan namunalar olindi. An'anaviy TT-PZR usuli yordamida tahlillar amalga oshirildi (2-rasm).

Tadqiqot davomida pomidor o'simligidan ToBRFVning 2 ta izolyati ajratildi. Aniqlangan izolyatlar Xalqaro Gen bank - NCBI ma'lumotlar bazasiga "ToBRFV Uzb 4.1" (ID OR501605.1) va "Tomato brown rugose fruit virus, isolate M-24" (ID PQ660493.1) nomlari bilan joylashtirildi. O'rganilgan birinchi izolyat nukleotidlar ketma-ketligi (987 j.n.) ikkinchisi esa, to'liq genom sekvens qilindi, ya'ni 6360 j.n. ni tashkil etdi. CP geni nukleotidlar ketma-ketligi BLAST


online dasturi yordamida Xalqaro Gen Bank - NCBI ma'lumotlar bazasidagi mavjud ToBRFV izolyatlarining nukleotidlar ketma-ketliklari bilan taqqoslandi.



2-rasm. Pomidor o'simligi bargi va mevalaridan ajratilgan ToBRFVning an'anaviy

TT-PZR tahlili. Elektroforez 1,5%-li agarozda gelida amalga oshirilgan: M-marker (O'GeneRuler 1 kb DNA ladder), 1-*Pink Paradise* navli pomidor bargi; 2-*Alamino* navli pomidor bargi; 1/1-*Pink Paradise* navli pomidor mevasi, 2/2-*Alamino* navli pomidor mevasi. PZR mahsuloti 475 bp ni tashkil etdi.

To'liq genom sekvens qilingan "M-24" mahalliy izolyat virusning filogenetik shajarasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi va MEGA11 dasturi yordamida uning filogenetik shajarasi tuzildi (3-rasm).



3-rasm. ToBRFVning filogenetik shajarasi

Filogenetik shajara tahlili natijalariga ko'ra, NCBI ma'lumotlar bazasiga joylashtirilgan barcha ToBRFV izolyatlari uchta asosiy klasterga (Clade-1, Clade-2 va Clade-3) guruhlandi. Mamlakatimizda aniqlangan "M-24" izolyati Xitoy izolyatlari bilan bir shoxda joylashgan. Barcha izolyatlar esa Niderlandiya izolyatining o'zak shoxidan tarqalganligini va ularning kelib chiqishi ushbu izolyatlarga yaqin ekanligini taxmin qilish mumkin. Virus gomologiyasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan bioinformatik tahlillar "Tomato brown rugose fruit virus, M-24" izolyati boshqa ToBRFV izolyatlari bilan 99,7-99,8% o'xshash ekanligini ko'rsatdi. OUTGROUP sifatida kiritilgan tamaki mozaika virusi (TMV) bilan o'xshashlik darajasi 82% ni tashkil etdi. Bu esa ToBRFV ning alohida mustaqil tobamovirus ekanligini ko'rsatadi.

Filogenetik shajara daraxtida O'zbekiston izolyatining Clade-3 tarkibida joylashishi uning boshqa mintaqalardan urug' yoki ekish materiallari orqali bizning mamlakatimizga kirib kelganligini ko'rsatdi.

Keyingi tadqiqotlarda O'zbekiston "M-24" izolyatining oqsil qobig'ini molekulyar tavsiflashga qaratildi. Xususan, uning aminokislota tarkibining boshqa yaqin izolyatlar bilan qiyosiy tahlili o'tkazildi. Nukleotid ketma-ketliklari "SnapGene" dasturi yordamida tahlil qilinib, yig'ildi. Nukleotid va aminokislota ketma-ketliklari GenBank va EBI bazalaridagi boshqa ToBRFV izolyatlari bilan taqqoslandi (jumladan, PP916473.1 - Yaz.Kha.To va PQ310342.1 - izolyat "B").

Ko'p ketma-ketlikli moslashtirish Clustal Omega dasturida bajarildi. Olib borilgan taqqiqot natijasida SNP (bir nukleotidli o'zgarish) va aminokislota almashilganligi aniqlandi. "M-24"(PQ660493.1) izolyatining nukleotidlar ketma-ketligi <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuclot/PQ660493.1> saytida NCBI ma'lumotlar bazasidagi eng yaqin Eronning "Yaz.Kha.To" va "B" izolyatlari bilan taqqoslandi (4-rasm).

PP916473.1	ACCTG G T A CAAGCTGGTGGCCG A AGGGC
PQ660493.1	ACCAGTGGACAA C CTGGTGGTGG A AGCGC
PQ310342.1	ACC C TGGACAA G CTGGTGGTGG A AGGC
	*** ** ***** ***** **** **
1. XSB39591.1	VEN L AT L Y A TR A IN K L V A E LV K G F E A SG
2. XLM53549.1	VEN Q AT L D A TR A IN N L V E LV K G F E S SG
3. XQH04660.1	VEN A AT L D A TR A IN L V E LV K G F E A SG
	*** *** ***** ** ***** **

4-rasm. "M-24" izolyati oqsil qobig'i genomining nukleotid va aminokislotalar ketma-ketligining qiyosiy tahlili. Rasmdagi: 1 – "Yaz.Kha.To" (PP916473.1) izolyati, 2 – "M-24" (PQ660493.1) izolyati, 3 – "B" (PQ310342.1) izolyati.

"M-24" mahalliy izolyatning oqsil qobig'idagi nukleotidlar ketma-ketligi solishtirilgan boshqa izolyatlar bilan yaqin, ammo bir xil emasligi olib borilgan bioinformatik tahlillar natijasida ma'lum bo'ldi. "M-24" izolyati Eronning "Yaz.Kha.To" (PP916473.1) izolyati bilan solishtirilganda 6 ta, "B" (PQ310342.1) izolyati bilan solishtirilganda 4 ta SNP mutatsiyasi aniqlandi.


"M-24" izolyatiga yaqin bo'lgan Eronning "Yaz.Kha.To" (XSB39591.1) izolyati aminokislotalari bilan solishtirilganda 5 ta nuqtasida Missense mutatsiyaga uchranganligi (bitta aminokislotalarning boshqasiga almashtirilishi bilan kechuvchi genetik o'zgarish) aniqlandi, ya'ni *leutsin* (L) aminokislotalari *glutaminga* (Q), *tyrozin* (Y) aminokislotalari *aspartat kislotaga* (D), *lizin* (K) aminokislotalari *asparaginga* (N), *alanin* (A) aminokislotalari *valinga* (V), *arginin* (R) aminokislotalari esa *serin* (S) bilan almashganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek "M-24" izolyati Eronning 2 - "B" (XQH04660.1) izolyati bilan solishtirilganda 3 ta nuqtasida Missense mutatsiya bo'lganligi aniqlandi. Bunda *prolin* (P) aminokislotalari *glutaminga* (Q), *lizin* (K) aminokislotalari *asparaginga* (N), *arginin* (R) aminokislotalari esa *serin* (S) bilan almashganligi ma'lum bo'ldi.

Ushbu molekulyar o'zgarishlar ToBRFV turli abiotik (harorat, agrotexnik tadbirlar, atrof-muhit stresslari) hamda biotik (o'simlik navlari, aralash

infeksiyalar, virus va xo'jayin koevolyutsiyasi) omillar ta'sirida shakllanganligini taxmin qilish mumkin.

ToBRFVning izolyatsiyalangan yopiq sharoitda tarqalishi, rezervator o'simliklari va saqlanishini aniqlash. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan mualliflar tomonidan (Dombrovsky A., Smith E, 2017) ushbu virus yopiq izolyatsiyalangan sharoitda inson faoliyati, ish qurollari va boshqa qator yo'llar yordamida tarqalishi keltirilgan. Ammo, tarqatuvchi hasharotlar haqida ma'lumotlar kam uchraydi. Shu sababli tadqiqotda changlatuvchi ari - *Bombus terrestris*ning virus tarqalishida ishtirokini aniqlash maqsadida Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi "Agro ProduktExport" MChJ, Zangiota tumanidagi "New Agromax" fermer xo'jaligi issiqxonalaridan pomidor mevasi, changlatuvchi arilardan olingan namunalar olindi. Virus turini aniqlash maqsadida ToBRFV va TSWV viruslari uchun maxsus spesifik praymerlar yordamida an'anaviy PZR tahlilidan o'tkazildi (5-rasm).



5-rasm. ToBRFV va TSWV viruslari tarqalishini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan an'anaviy TT-PZR tahlili natijalarining elektroforegrammasi.

Rasmdagi: 1 - *Alamino* navli pomidor mevasi, 2 - *Bombus terrestris* changlatuvchi arilar, NC - salbiy nazorat, PC - ijobiy nazorat, M - marker (100 bp)

Olingan natijalar tahlili asosida changlatuvchi ari *Bombus terrestris* va pomidor mevasidan ToBRFV virusi aniqlandi, biroq tajribada TSWV virusi aniqlanmadi. Bu esa issiqxona ToBRFV virusi bilan kasallanganini va changlatuvchi arilar bevosita tarqatuvchi ekanligi tasdiqlaydi (5-rasm, 1, 2).

Virusga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda ularning tashuvchi hasharotlari va rezervator o'simliklarini aniqlash bugungi kunda muhim amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida Toshkent viloyatining Qibray tumanida joylashgan issiqxona xo'jaligida yetishtirilgan *Pink Paradise* navli pomidor o'simligi va u yerdagi begona o'tlardan ham namunalar olindi. Olingan namunalar laboratoriya sharoitida PZR tahlillaridan foydalangan holda tekshirish ishlari amalga oshirildi.

PZR tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, tekshirilgan issiqxona sharoitida o'suvchi jami 14 tur madaniy va yovvoyi o'simliklardan pomidor (*Pink Paradise* navi), oddiy jag'-jag' (*Capsella bursa-pastoris* L.), qoqio't (*Taraxacum officinale*), oddiy sho'ra (*Chenopodium quonea*) va qora ituzum (*Solanum nigrum*) kabi o'simliklar tanasida virus saqlashi tasdiqlandi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, *Pink Paradise* pomidor mevalarida virus akkumulatsiyasi Cq = 25,13 qiymatda, *Capsella bursa-pastoris* L. va *Solanum nigrum* namunalarida bu ko'rsatkich Cq = 29,62 va 25,39 ni, *Taraxacum officinale* va *Chenopodium*

quinoa namunalarida esa mos ravishda $Cq = 25,13$ va $Cq=26,79$ qiymatlar aniqlandi (2- jadval, 6-rasm).

2- jadval
ToBRFVning rezervatorlarini Real vaqtgi TT- PZR usuli yordamida aniqlash

O'simlik nomi	PZR xulosasi (Cq)
Pomidor (<i>Pink Paradise</i>)	25,13
Oddiy jag'-jag' (<i>Capsella bursa-pastoris</i> L.)	26,79
Mingdevona (<i>Hyoscyamus</i> L.)	-
Yovvoyi karom (<i>Brossica campestris</i> L.)	-
Semizo't (<i>Portulaca oleracea</i> L.)	-
Sebarga (<i>Trifolium</i>)	-
Qora ituzum (<i>Solanum nigrum</i>)	25,62
Pechako't (<i>Convolvulus sepium</i>)	-
Ajriq (<i>Cynodon dactylon</i> L.)	-
Tugmachagul (<i>Malva</i> L.)	-
Qoqio't (<i>Taraxacum officinale</i>)	25,39
Yovvoyi latuk (<i>Lactuca serriola</i>)	-
Yulduzcha (<i>Stellaria media</i>)	-
Oddiy sho'ra (<i>Chenopodium quinoa</i>)	29,37
K+ (musbat nazorat)	27,28
KB-(ichki nazorat)	-
K- (manfiy nazorat)	-




6-rasm. ToBRFV rezervator o'simliklari.
a) *Taraxacum officinale*,
b) *Capsella bursa-pastoris*,
c) *Chenopodium quinoa*

Demak, o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ToBRFV ko'p yillik o'simliklar *Taraxacum officinale*, *Capsella bursa-pastoris* L. va bir yillik *Chenopodium quinoa*da kuzda o'sib, barglari qor tagida qishlab, bahorda o'sishda davom etishini inobatga olinsa, ToBRFVni rezervator o'simliklarda saqlanishi virusning davriy aylanishi va kengroq masofaga tarqalishiga sabab bo'ladi.

Virus zararini pomidor mevasi tarkibidagi muhim biologik moddalar miqdoriga ta'sirini aniqlash orqali baholash. Buning uchun ToBRFV bilan kasallangan va sog'lom pomidor mevalarida muhim biologik aktiv moddalar, jumladan B₉, B₂, B₁₂, PP hamda C vitaminlarning miqdoriy o'zgarishi o'rganildi (7-rasm).

Diagrammada, vitamin B₉ faqat *Pink Paradise* navida nazoratga nisbatan kasallangan va simptomli mevalarda 3 baravar kamayishi, vitamin B₂ esa *Alamino* navida 0,496 mg/g gacha, B₁₂ vitamini 1,6-2,6 mg/g gacha, PP vitamini simptomli mevalarda 0,08-0,16 mg/g gacha kamayganligi aniqlandi. Shuningdek, vitamin C da eng katta farq kuzatilib, sog'lom mevalarda 52-57 mg/g bo'lsa, kasallangan mevalarda bu ko'rsatkich 4,8-33 mg/g kamayib ketganligi aniqlandi. O'tkazilgan

tahlil natijalariga ko'ra, ToBRFV pomidor mevalarida antioksidant vitaminlar (C va B₂) miqdorini keskin kamaytirganligini ko'rish mumkin.



7-rasm. ToBRFV bilan kasllangan pomidor mevalaridagi vitaminlar miqdori. Rasmdagi: a) B₉, B₂ va PP vitaminlar miqdori; b) B₁₂ va C vitaminlar miqdori

Vitamin B₉ va B₁₂ miqdorining kamayishi nuklein kislotalar biosintezi va hujayra bo'linish va boshqa muhim hayotiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ToBRFV bilan kasallangan pomidor mevalarida vitaminlar va mikro va makro elementlarning kamayishi o'simlikning himoya tizimi zaiflashishiga olib keladi (3-jadval).

3-jadval

ToBRFVning pomidor mevasi tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdoriga ta'siri

Makro va mikroelementlar	<i>Pink Paradise</i> (nazorat**)	<i>Pink Paradise</i> (latent)	<i>Pink Paradise</i> (simptomli)	<i>Alamino</i> (nazorat**)	<i>Alamino</i> (latent)	<i>Alamino</i> (simptomli)
Kaliy	2027±0,03*	10,36±0,02	9,36±0,01	2332±0,04	65,68±0,03	10,78±0,04
Temir	37,4±0,04	0	0	64,5±0,03	0	0
Mis	3,28±0,02*	0	0	2,85±0,02*	0	0
Marganes	14,6±0,01	0	0	24,2±0,01	0,044±0,02	0
Rux	15,6±0,04	0,009±0,01*	0,007±0,02	7,65±0,04	0,037±0,01*	0,002±0,01
Selen	0,41±0,03	0,004±0,02	0,003±0,01*	0,64±0,02	0,003±0,03	0,003±0,02

*P<0,05 - nazoratga nisbatan ishonchli; n=3; *** - nazorat sifatida sog'lom pomidor mevasi olingan.

Shuningdek, ToBRFVning pomidor mevasi tarkibidagi makro va mikroelementlarga ta'siri ham o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, virus bilan kasallanish nazoratga nisbatan *Pink Paradise* simptomli mevalarida Fe, Cu, Mn kabi elementlar butunlay aniqlanmagan. Kaliy esa 9,36 mg/g ni tashkil etdi va bu nazoratga nisbatan 200 baravar kamayganligini ko'rsatdi. *Alamino* navida ham Zn 7,65 mg/g dan 0,002 mg/g gacha kamaygan, Fe esa umuman aniqlanmagan.

Olib borilgan tahlillar natijasida pomidor mevalariga ToBRFV infeksiyasining ta'siri makro va mikroelementlar konsentratsiyasi kamayishiga olib keladi. Bu esa nafaqat o'simlikning normal metabolik jarayonlarini izdan chiqargan, balki mevaning oziqaviy va biologik qiymatini ham kamaytirgan.
